JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 20 - aprel 131-3-53-Q/22 Forish tuman hokimligi

Forish tumani markazi “Bog’don” shaharchasidan o’tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum xalqa yo’li”ning 58-59 km. oralig’iga yo’l belgilarini o’rnatishga ruxsat etish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Yo’l harakati xavfsizligi to’g’risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi “Yo’l harakati qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 370-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Forish tuman ichki ishlar bo’limining 2022 yil 26 martdagi 45/511-sonli xatini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to’g’risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Forish tuman ichki ishlar bo‘limining 2022 yil 26 martdagi 45/511-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Forish tumani markazi “Bog‘don” shaharchasidan o‘tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum xalqa yo‘li”ning tegishli hududlariga ilovaga muvofiq “Mol haydab o'tish joyi” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Yo‘llardan foydalanish“ UK (F.Xakimov)ga tuman markazi “Bog‘don” shaharchasidan o‘tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum xalqa yo‘li” ga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq

o‘rnatilgan ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, axborot-ishora belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlarining talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXG (V.Xusanov)ga mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatilishini hamda tuman markazida yo‘lovchi tashish xizmati bilan shug‘ullanayotgan transport vositalari harakatini tartibga solish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida o'rnatilgan yo'l byelgilariga rioya etilishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning www.forish.jizzax.uz − rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **И.Матиев**

Forish tuman hokimining
2022 yil 20 apreldagi
131-3-53-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Forish tumani markazi “Bog’don” shaharchasidan o’tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh-Yangiqishloq k.-Qizilcha k-Qizilqum xalqa yo’li"da o’rnatiladigan yo’l belgilari

T/P	Yo’l belgisining nomi	Joylashtirish joyi (PK)	Soni (dona)
1	1.24 Mol haydab o'tish joyi	PK 54+200 PK 54+400	2
2	1.24 Mol haydab o'tish joyi	PK 67+00 PK 67+200	2
3	1.24 Mol haydab o'tish joyi	PK 25+00 PK 25+200	2